

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVYERSITETI

RO'YXATGA OLINDI

№ BD-5120400-2.03

"—" 20 yil



"JAXON ARXEOLOGIYASI" fanidan  
O'QUV DASTUR

Bilim soxasi: 100000-gumanitar soxa

Ta'lif soxasi: 130000-tarix

Ta'lif yo'nalishi: 5120400 - "Arxeologiya"

SAMARQAND 2019.

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chikildi.


**Tuzuvchi:**

Mo'minov O.O. «Arxeologiya» kafedrasи o'qituvchisi


**Taqrizchilar:**


Djurakulov M.Dj.-SamDU, «Arxeologiya» kafedrasи t.f.d, professor.


Fanning ishchi o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti «Arxeologiya» kafedrasining o'quv – uslubiy kengashining 201\_yil \_\_ avgustdagи majlisи \_\_ son yig'ilishida muxokamadan o'tgan va fakultet kengashida muxokama qilish uchun tavsiya etilgan

Kafedra mudiri:  dots.N.O'.Xolmatov.

Fanning ishchi o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti kengashida muxokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil \_\_ avgustdagи \_\_ soni bayonnomasi)

Fakultet kengash raisi:  dots. Djurakulova D.M.

Fakultet o'quv-uslubiy kengash raisi:  dots. Xoshimova M.M.

Kelishildi: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i.  Aliqulov.B

## Kirish

Ushbu dastur arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi, moddiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, arxeologik tadqiqot usullari, arxeologik madaniyat, madaniy qatlam, arxeologik davrlar, arxeologik davrlashtirish va xronologiya, ilk paleolit, Afrika insoniyatning eng qadimgi vakillari shakllangan hudud sifatida. Insoniyatning eng qadimgi vakillari shakllanishi shart-sharoitlari, ashel davri kishilarining Osiyo va Evropa hududi bo'ylab keng tarqalishi, YAqin SHarq, Janubiy-SHarqiy Osiyo, Uzoq SHarq quyi paleoliti, ashel davri kishilar xo'jaligi va moddiy madaniyati, muste davri va uning xususiyatlari, so'nggi paleolit, antropogenez jarayonining tugallanishi, Afrika, YAqin SHarq, Evropa, Janubiy Osiyo va Uzoq SHarqning yuqori paleolit davri asosiy manzilgohlari, so'nggi paleolit davrida sun'iy ujjoylarning paydo bo'lishi, ijtimoiy munosabatlar, ibtidoiy diniy qarashlarning shakllanishi, Klekton madaniyati. YUqori paleolit davri-Madlen madaniyati. [Fransiya](#), [Ispaniya](#), [SHveysariya](#), [Belgiya](#), [Germaniya](#). Badegul madaniyati. Orinyak madaniyati. Fransyaning (YUqori Garonna departamenti) Orinyak (Aurignac) g'ori. Miloddan avvalgi XXXIII-[XIX](#) ming yilliklar. Solyutre madaniyati. Fransiya va SHimoliy Ispaniya. Grimaldi madaniyati. Altamira-Ispaniyadagi yuqori paleolit davri yodgorligi. Altamir suratlari. SHimoliy Italiya va Skandinaviya. Lasko yoki Lyasko g'ori. Mezolit davri, mezolit davrida flora va faunadagi o'zgarishlar YOvvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo'jaligining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar., YAqin va O'rta SHarq mezoliti, Natufiy madaniyati, Falastin va Suriya, mezolit suratlari, Janubiy-SHarqiy Osiyoning mezoneolit madaniyatlari, Mo'g'uliston mezoliti, Xitoy mezoliti, tosh qurollar tayyorlashning mezolit davri texnikasi, mikrolit tosh qurollar, Afrika mezoliti, Tardenuaz madaniyati - G'arbiy Evropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit davri madaniyati. Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000 — 5200 ming yilliklar) - Skandinavianing janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati. Nyostvet va Lixult madaniyatlari. Fosna (Fosna), Komsa (Komsa) va Askola (Askola) madaniyatlari. Maglemoze madaniyati. Fransiya. Azil madaniyati. [Suomus'yarvi](#) madaniyati. Finlandiya. Svidersk madaniyati. Sovtersk madaniyati, Nabta-Playya kabi tushunchalar va bilimlar ahamiyatini ochib beradi.

SHuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlarini o'rganish va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

## O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – Jaxon arxeologiyasining paleolit va mezolit davri madaniyati xaqida talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – Insoniyat qadimgi tarixi va uning asosiy bosqichlarini o'rgatishdan iborat.

## Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Jaxon arxeologiyasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- “Jaxon arxeologiyasi” kursining maqsad va vazifalari, dastlabki insoniyat vakillarining Janubiy va SHarqiy Afrikada xayvonot dunyosidan ajralishi va shakllanishi muammolari. Insoniyat vakillarining Evroosiyo materigiga tarqalish jarayoni. Uning ekologik va ibtidoiy madaniyatga ta'siri. Evropa, YAqin va O'rta SHarq, Janubiy-SHarqiy Osiyo, Uzoq SHarq paleolit va mezolit davri madaniyatlari hamda topilmalari haqidagi ilmiy ma'lumotlardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni **bilishi** kerak;

- Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Muzey ashylari va internet ma'lumotlarni, arxeologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak;
- Arxeologiya muzeyi, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari materiallaridan foydalanish *malakalariga ega bo'lish* kerak.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

“Jaxon arxeologiyasi” (paleolit va mezolit davri) fani umumkasbiy fan hisoblanib, II semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalashtirilgan Antropogenez, To'rtlamchi geologiya, fanlaridan *etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi* kerak.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Evropa arxeologiyasi” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma'ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multimedia, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan namoyshlari bilan o'tkaziladi.

Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyixalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

**SHaxsga yunaltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoashilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha buginlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlanirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalarini.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahdili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'ulotni bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baxolash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Evropa arxeologiyasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

### Asosiy qism

#### Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

Arxeologiya termini. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi, Platon (mil. avv. 427-347 yy). «Gippiy» dialogi. Sitsiliyalik Diador (mil. avv. 80-20 yy). Rim imperiyasi davri lotin mualliflari asarlarida “Antiquitates- qadimiyot” terminining qo'llanilishi. Moddiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, arxeologik tadqiqot usullari: Radiokarbon, Radiouglelroli taxlil, Uillard Libbi. Vir Gordon CHayld. Dendroxronologik metod. Aerofotosurat. Arxeologiyada GIS va zamonaviy informatsion texnologiyalarning qo'llanilishi. Arxeologik madaniyat, madaniy qatlamlari, arxeologik davrlar: paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, ilk temir asri. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya. Arxeologik tadqiqotlar tarixi.

#### Insoniyatning paydo bo'lishi va qadimiy gominidlar

##### Afrika paleoliti

Afrika qitasining tabiiy sharoiti. SHarqiy Afrika tog' tizmasi tabiiy muxiti. Er yuzida vujudga kelgan muzlash davrida va ularning ibtidoiy odamlar xayotiga ta'siri. Afrika qit'asida birinchi odamlarning paydo bo'lishi. Qadimgi odamlarning Afrikadan Evroosiyoga I migratsiyasi. Qadimgi odamlarning YAqin SHarq xududidan Kavkaz va Evropaga migratsiyasi. Amerikaning qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilishi. Paleolit davriga oid tosh industriyalarining taraqqiyoti. Olduvey, ashel, levallua va boshqa paleolit davriga oid industriyalar. Afrika paleolit davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Afrika qit'asidagi topilmalar. Burungi va yangi filogenetik va taksonomik sxemalar. Gominidlar evolyusiyasi xaqidagi nazariyalar. Homo Sapiens muammosi.

##### YAqin, O'rta SHarq paleolit va mezolit davrida

YAqin va O'rta SHarq xududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi. YAqin va O'rta SHarq xududining qadimgi davrdagi tabiiy shart-sharoitlari. YAqin va O'rta SHarq xududida insoniyatning paydo bo'lishi. YAqin va O'rta SHarq tabiiy sharoitining pleystotsen davrida o'zgarib borishi. Falastin, Suriya, Livan, Turkiya, Iraq, Eron, Afg'oniston paleolit davri yodgorliklari. Ularning davrlashtirish muammosi va xususiyatlari. Ibtidoiy odamlarning Evropa qit'asiga tarqalish jarayonida YAqin SHarq mintaqasining axamiyati. Karmel xududidagi «g'orlar vodiysi»-Vadi el-Mugara. Tabun g'ori. Levallua texnikasi. SHarqiy O'rta er dengizi o'rta paleolit davrida. SHarqiy O'rta er dengizi yuqori paleolit davrida. Kzar-Akil va Kebara g'ori. Turkiya. Altyn-tepe. Kirkuk-Suleymaniya. Xazar-Merd. Janubi-sharqiy Kaspiybo'yidagi SHanidar, Ke-Aram I g'ori. Eronning yuqori paleolit davri yodgorliklari: YAfte, Pa-Sangar, Arjene. Afg'oniston- Darrai-Kur g'ori. YAqin va O'rta SHarq xududi mezolit davrida. Natufiy madaniyati. YAqin va O'rta SHarq xududida qadimgi odamlarning o'troq turmush tarziga o'tishi. Myuraybit manzilgohi. Zevi -CHemi-shanidar manzilgohi. YAqin va O'rta SHarq xududida dastlabki ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi.

##### Evropa paleolit va mezolit davrida

Evropaning geografik joylashuvi. Evropa qit'asining ilk gominidlar tarafidan o'zlashtirishi muammosi. Paleolit davri va uning bosqichlari: olduvay, ashel, muste va so'nggi paleolit. Evropa paleolit davrida. Evropaning ilk tosh industriyalari. Ashel va klekton industriyalari. Arxantroplar qoldiqlari. Muste davriga o'tish jarayonlari, muste davri industriyalarining turli-tumanligi. Neandertal tipidagi odam. Evropa mikroindustriyalari. Neandertal tipidagi odamlarining davri va yashash xududlari. Evropaning muzlash davrlari va ularning xronologiyasi. Evropaning yuqori paleolit davri madaniyatları. YUqori paleolit davri Madlen madaniyati. [Fransiya](#), [Ispaniya](#), [SHveysariya](#), [Belgiya](#), [Germaniya](#). Mil. avv. 15-8 ming yilliklar. Badegul madaniyati. Orinyak madaniyati. Fransyaning (YUqori Garonna departamentidagi) Orinyak (Aurignac) g'ori. XX asrning boshlarida Orinyak madaniyatining aniqlanishi.

Mezolit davri tavsifi. Tabiiy o'zgarishlar va ekologiyaning o'rni. YOvvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo'jaligining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Tardenuaz madaniyati - G'arbiy Evropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit davri madaniyati. Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000 — 5200 ming yilliklar) - Skandinaviyaning janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati. Nyostvet va Lixult madaniyatlari. Fosna (Fosna), Komsa (Komsa) va Askola (Askola) madaniyatlari. Maglemoze madaniyati. Fransiya. Azil madaniyati. [Ma-d'Azil](#). [Suomus'yarvi](#) madaniyati. Finlandiya. Svidersk madaniyati. Sovtersk madaniyati.

### **Janubiy va Janubiy – SHarqiy Osiyo paleolit va mezolit davrida.**

Xindiston subkontinenti va Janubiy – SHarqiy Osiyo xududlari tabiiy sharoiti va ularning ibtidoiy odamlar tarafidan o'zlashtirishi muammosi. Mintaqaning pleystotsen davri xronologiyasi. Qadimgi Hindiston, Seylon, Birma, Laos va Vietnam paleolit yodgorliklari. Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo paleolitining o'ziga xos hususiyatlari. Qadimgi Hindistonning arxeologik jixatdan o'rganilishi. Janubiy Osiyoning qadimgi davr tabiiy shart-sharoitlari. YAva orolidagi Pachitan va Malayziyadagi Kota Tampan paleolit davri komplekslari. Sangiran industriyasi. Qadimgi Hindistonning arxeologik o'rganilishi. Soan madaniyati (Hind vodiysi, zamonaviy Pokiston). Madrasskaya madaniyati. Maxareva madaniyati. Langnaj manzilgohi. Ganga vodiysi ilk mezoliti. Janubiy Hindiston mezolit davri manzilgohlari. SHri Lanka qadimgi madaniyatlari. SHimoliy Vietnam, Tailand va Indoneziya. Janubiy-SHarqiy Osiyoning mezoneolit madaniyatlari. SHimoli-sharqiy Vietnamdagi Keofay g'ori. SHimoliy Tailantdagli Ruhlar g'ori. Xoabin madaniyati. Mo'g'uliston mezoliti. Xere-Uul manzilgohi.

### **Uzoq SHarq paleolit va mezolit davrida.**

Uzoq SHarq xududining paleolit va mezolit davri madanyaitlarining arxeologik o'rganilishi. Xitoy, YAponiya, Koreyaning qadimgi davr tabiiy shart-sharoitlari. Uzoq sharq xududidida insoniyatning paydo bo'lishi. Mikroindustriya an'analarining Uzoq SHarq xududlaridan Evroosiyo qit'asining g'arbiga tarqalishi xaqidagi ilmiy gipoteza. X. Movius gipotezasi. CHjoukoudyan, stratigrafiya, paleoantropologiya, kul qatlamlari, industriya va sinatron xususiyatlari. Koreya va YAponiya paleoliti. Syaoxueydun g'ori. SHimoli-sharqiy Xitoy: Lyaponin, Girin va Xeylunszyan. Syachuan madaniyati. Fulin (Sichuan provinsiyasi) va CHanbin (Tayvan oroli). Pekin odami. Xetaosk odami. Neoantroplar. Koreyaning qadimgi madaniyatlari. Koreya yarim oroli paleolit yodgorliklari. CHongokni. CHopper va choppinglar. Kulpxo I industriyasi. Sokdyanni I topilmalari. YAponianing qadimgi madaniyatlari. YAponiya orollarining ibtidoiy odam o'zlashtirishi va paleolit davriga oid madaniyatlarning rivojlanishi. Riss-vyurm-o'rtta muzlik davri. Gongen'yama. Iavadzyuku. Sodzyuday manzilgohi. Xokkaydo orolida qadimgi odamlarning paydo bo'lishi. Xitoy mezoliti. CHjalaysk madaniyati. Xuanxe xavzasidagi SHayuan mezolit davri kompleksi. YAponiya mezoliti.

## **Paleolit va mezolit davri san'ati**

Ibtidoiy san'atining o'r ganilishi tarixi. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya, Rossiya g'orlaridan topilgan paleolit davri tasviriy san'ati. Paleolit davri petrogliflari. Osiyo, Afrika, Avstriyaliyadagi paleolit davri san'atining obrazlari va ma'nosi. Paleolit davri odamlarining qadimgi diniy qarashlari. Altamira yodgorligi. Lasko yodgorligi. Mezolit davri devoriy suratlari – Adamgarx. Singapur-Raygarx xududi qoyatosh suratlari va ulardagi ov manzaralari izohi.

### **Mezolit davri umumiyyat tavsifi**

Mezolit davri. Golotsen davri ob-havo shart-sharoitlari. YAngi hayot tarziga o'tishga olib kelgan flora va faunadagi o'zgarishlar. Kamon va o'q yoyning kashf qilinishi. Mikrolit va tosh qurollar texnikasi taraqqiyoti. YAqin va O'rta SHarq mezolit davrida. Falastin va Suriya. Natufiy madaniyati. Xo'jaligi va moddiy madaniyati xususiyatlari.

### **Janubiy, SHarqiy va janubi-sharqiy Osiyo hududlari mezolit davrida**

Xindiston mezolit davrida. Langxnaj yodgorligi. Xindistonning mezolit davri qoyatosh yodgorliklari. Janubi-sharqiy Osyoning mezoneolit madaniyatlari xususiyati. Xindixitoy yarim oroli g'or makonlari. Mo'g'iliston mezolit davrida. Xere-Uul manzilgohi. Xitoy mezolit davrida. Umin madaniyati. Tibet mezoliti xususiyatlari. Ichki Mo'g'iliston mezolit davri yodgorliklari xususiyatlari.

### **Evropaning mezolit davri arxeologiyasi**

Mezolit davri tafsifi Tabiiy o'zgarishlar va ekologiyaning o'rni. YOvvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchisi xo'jaligining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Tardenuaz madaniyati - G'arbiy Evropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit davri madaniyati. Kongemoze madaniyati (mil. avv. 6000 - 5200 ming yilliklar) - Skandinaviyaning janubidagi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar madaniyati. Nyostvet va Lixult madaniyatlari. Fosna (Fosna), Komsa (Komsa) va Askola (Askola) madaniyatlari. Maglemoze madaniyati. Fransiya. Azil madaniyati. Ma-d'Azil. Suomus'yarvi madaniyati. Finlandiya. Svidersk madaniyati. Sovtersk madaniyati.

### **Old Osyoning neolit davri arxeologiyasi**

Neolit davri. G. CHayld. Neolit inqilobi. YAqin SHarqdagi ilk dehqonchilik o'choqlari. Ierixon madaniyati va uning bosqichlari. Tell as Sulton va Beyda manzilgohlari. Kichik Osyoning neolit davri arxeologiya majmualari. Xojilar II, CHeyunu tepesi va CHatal-Xuyuk va boshqalar. Ilk dehqonchilik markazlarining muhofazalangan qishloqlari. Jarmo madaniyati va Zagros madaniyati birligi Bas Mardex, Ali Qo'sh yodgorliklari. Janubiy Mesopotamiyaning o'zlashtirilishi.

### **Mesopotamiyaning eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Mesopotamiyada o'troq dehqonchilik madaniyati takomillashishi. Xassun madaniyati. Tosh qurollar inqirozi. Misdan foydalanishning kengayishi. Xumdonlarning paydo bo'lishi. Ayol haykalchalari, tumor-muhrlar. Samariya madaniyati. Suniy sug'orishning paydo bo'lishi. Badiiy madaniyatning takomillashishi. Savvana III yodgorligi. Ko'p xonali uy-joylarning paydo bo'lishi. Xalaf madaniyati va uning xududiy kengayishi. Ubeyda madaniyati. Erudu manzilgohi. Mil.av V ming yillikning o'rtalarida dastlabki ibodatxonalarining paydo bo'lishi so'nggi Ubeyd bosqichida ularning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyatining ortib borishi. SHimoliy Mesopotamiya Ubeyd davrida. Janub bilan moddiy madaniyatidagi o'ziga xoslik. Tepai Gavra manzilgohi. Ibodatxona. Tabaqalashgan sag'analar. Uruk madaniyati. Varkada amalga oshirilgan qazishmalar. Manzilgohlarning tabaqlanishi. Ilk shahar markazlarining paydo bo'lishi. Ibodatxonalar. Ibodatxonalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi mavqieining ortib borishi. Ixtisoslashgan ishlab chiqarishning chuqurlashuvi. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqlanishining chuqurlashuvi. Jamdet Nasr madaniyati. Ibodatxona me'morchiligi. Saroylar.

Uy-joy imoratlari. Dafn inshootlari va marosimlari. Kuzatuv buyumlari. Hunarmandchilik. Siyosiy va diniy hokimiylarning jamiyatni boshqaruvchi kuchga aylanib borishi. Silindr muhrlar. YOzuv. Xalqaro aloqalarning kuchayishi. Mesopotamiya ilk sulolalar davrida. SHaharlarning tuzilishi va mudofaa tizimi. Saroylar. Ibodatxona inshootlari. Oddiy qabrlar va hukmdorlar sag‘analari. YUK tashish jangavor aravalari. Mehnat qurollari, qurol yarog‘lar. Zeb-ziynat buyumlari. Metall idishlar. Kulolchilik. Muhrilar. Tasviriy san‘at. Qadimgi Mesopotamianing tarix davri arxeologiyasi. Me’morchilik, haykaltaroshlik, gliptika.

### **Kichik Osiyoning eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Kichik Osiyoda mil. av. VI-V ming yilliklarda CHatal-Xuyuk an‘analari davomiyligi. Eneolit davri Xojilar manzilgohi. Qurilish, mudofaa inshootlari. Ilk ibodatxonalar. Kulolchilik. Koniya tekisliklari ilk eneolit davrida. CHatal-Xuyuk yodgorligining g‘arbiy tepaligi. Kilikiya o‘rta eneolit davrida. Anatoliya so‘nggi eneolit davrida. Kilikiya so‘nggi eneolit davrida. Mersin. Kulolchilik, metall buyumlar. Uy-joy imoratlari. Hukmdor qarorgohi. Mersinning muhofaza qilinishi. Koniya vodiysi (Jon Hasan) va janubi-g‘arbiy Anatoliya so‘nggi eneolit davrida. Beychisultonning eneolit davri qatlamlari. Qurilish imoratlari. Kulolchilik. Metall buyumlar. Anatoliyaning ilk bronza davrida madaniy taraqqiyoti. Metallarni qazib olish va savdo ishlarining jadallahishi. SHaharlar va savdo koloniyalaring shakllanishi. Kichik Osiyoning ilk bronza davri madaniy taraqqiyoti. Qumtepa madaniyati. Alaja Huyuk manzilgohi. Kulolchilik. Metall buyumlar. G‘arbiy Anatoliya madaniyatları: Troya I, Iortan. Asosiy arxeologiya yodgorliklari. Ilk shahar madaniyati taraqqiyot bosqichlar. Troya, Polioxni, Termi, Emporio. Manzilgohlarning tuzilishi, mudofaa tizimi, qurilish va me’morchilik. Troya xazinası. Kulolchilik va metallarga ishlov berish. Jamiyatda harbiy salohiyatning kuchayishi va uning moddiy madaniyatda namoyon bo‘lishi. Bronza davri hunarmandchilik ishlab chiqarish taraqqiyoti. Zargarlik san‘atining rivojlanishi. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqlanishning yuqori bosqichga chiqishi. Harbiy ziddiyatlarning keskinlashuvi.

### **SHarqiy O‘rta Er dengizi hududining eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Mil.av. V ming yillikda SHimoliy Mesopotiyadagi Xalaf madaniyati ta’sirining kuchayishi. Mil. av. IV ming yillikda madaniy ta’sirning Ubed madaniyati bilan almashishi. Biblada IV ming yillikda hayotning qayta jonlanishi. Rejali manzilgohlar. Alloh manzilgohi. Ibodatxonalar. Tabaqalashgan uy-joy imoratlari. SHahar-davlatlar. Tel Mardix (Ebla). Bronza davri shahar makazlari - Ierixon, Meggido, Laxish, Ai va ularning mudofaa qudrati. Xazor yirik shahar markazi sifatida. Ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik. Ibodatxona va saroylar.

### **Misrning qadimgi davr arxeologiyasi**

SHimoliy Afrikaning golotsen davri qulay tabiiy iqlim sharoiti. Misrda hayvonlarni xonakilashtirish va o‘simliklarni madaniylashtirish muammolari. Misrda dehqonchilik madaniyatining paydo bo‘lishida G‘arbiy Osiyoning o‘rni. Ilk dehqonchilik madaniyati bosqichlari. Fayum. Xo‘jalik xususiyatlari va moddiy madaniyati. Tasiy madaniyati. Badari. Misrda jamiyat taraqqiyotining murakkablashuvi. Misdan foydalanishning boshlanishi. Amrat bosqichi. Negada I,II. Sug‘orma dehqonchilik. Manzilgohlar atrofini mudofaaa devorlari bilan muhofazalashning boshlanishi. Sun’iy sug‘orish taraqqiyoti. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish taraqqiyoti. Savdo munosabatlari va xalqaro savdo taraqqiyoti. Jamiyatda mulkiy va ijtimoiy tengsizlik chuqurlashishining moddiy madaniyatda namoyon bo‘lishi. Daxmalar. Diniy qarashlar. Dastlabki ibodatxonalar. Harbiy qarama-qarshilik kuchayishi va ularning moddiy madaniyatda aks etishi. Fir‘avn hokimiyatining shakllanishi va ilk shahar markazlarining qaror topishi. Podsholiklarning tashkil topishi va ularning almashinushi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar. Daxmalar, piramidalar va sfinkslar. Mahobatli qurilish inshootlari fir‘avn hokimiyat qudratining ramzi sifatida. SHaharlar. Qurilish va me’morchilik. Tasviriy san‘at. YOzuv ma’lumotlari.

### **Eronning eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Dehqonchilik madaniyati taraqqiyoti. Sialk va Talli Bakun manzilgohlari. Ilk eneolit majmualari. Sialk I, II bosqichlari. Xo'jalik xususiyatlari. Moddiy madaniyat. Kulolchilik. Metall buyumlar. Rivojlangan eneolit davri arxeologiya majmualari. Sialk III bosqichi O'troq dehqonchilik madaniyati doirasining kengayishi. Qurilish imoratlarining murakkablashishi. Mis buyumlar turining ko'payishi. Ixtisoslashgan hunarmandchilikning shakllanishi. Xuzistonda madaniy taraqqiyoti ilk Elam sivilizatsiyasi shakllanishi asosi sifatida. Elamga Mesapotamiyaning ta'siri masalalari. Protoelam sivilizatsiyasi va Eron jamoasi. Elamdan tashqari hududlarda sivilizatsiya o'choqlarining shakllanishi. Baxreyn va Oman hududlarida o'troq dehqonchilikning shakllanishi. Suza arxeologiya majmuasi. Suza B bosqichida shahar madaniyatining shakllanishi. Suza shahri. SHahar tuzilishi, mudofaaa tizimi. Kulolchilik charxining paydo bo'lishi. Muhrlar. Suza C davrida shaharlashish jarayoning tugashi. Silindr muhrlari. Suza D davrida Elam madaniy taraqqiyotining cho'qqisi. SHahar shaklida Xasanlu manzilgohi. Qadimgi madaniyat inqirozi va Old Osiyo davlatlari ta'sirida yangi madaniyatning qaror topishi. Eronning janubi-sharqiy hududlari bronza davri manzilgohlari. SHax Husayni, Damin, Bampur. G'arbiy Zagros yodgorliklari. Giyan kompleksi. Markaziy Eron bronza davrida. Sialka IV majmuasi. SHimoli-g'arbiy Eronda Tepai Hisor, SHaxtepa, Tyurengtepa yodgorliklari. Janubiy-sharqiy hududda SHahri Soxta manzilgohi.

### **Afg'oniston eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Janubiy Afg'oniston hududida eneolit davri madaniyatining paydo bo'lishida Sialka majmuasining ta'siri. Mundigak I-II.. Mahalliy Saidqal'a va Belujiston ta'siridagi Dex Morasi Gxuday manzilgohlari. Xo'jalik va moddiy madaniyati Mundigak III bosqichida madaniy taraqqiyot. Ilk shahar madaniyatining shakllanishi. Manzilgohning tuzilishi. Mudofaa tizimi. Qurilish va ma'morchilik. Hunarmandchilik. Mundigak IV bosqichida ilk shahar madaniyati inqirozi va uning sabablari.

### **Kavkazning eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Kavkazning tabiiy-geografik sharoiti. Ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi. Eneolit davri madaniyatlari. SHulaveri-shomutepa guruhi manzilgohlari (SHulaverisgora, Imrisgora va Aruxlo I). Manzilgohlarning tuzilishi. Xo'jaligi va moddiy madaniyati. Naxichevan-mil-mugan guruhi manzilgohlari. Kultepa manzilgohi. Qurilish. Qabrlar. Kulolchilik va metallarga ishlov berish. Mil va Mugan dashtlari yodgorliklari. Alikemektepasi.

Ilk bronza davri Kuro-araks madaniyati. Manzilgohlar, uy-joy imoratlari. Xo'jalik, kulolchilik va metallarga ishlov berish. Dafn inshootlari. Kavkazorti hududi rivojlangan bronza davrida. Trialet madaniyati bosqichlari: Baden va Kirovakan-Trialet. Baden davri qabrlari. Aravalari. Odamlarni qurbanlik keltirish. Qimmatbaho buyumlar. Bronza qurol yarog'lari. Keyingi bosqich taraqqiyot doirasining kengayishi. Manzilgohlar. Oddiy qabrlar va hashamdar qabr qo'rg'onlari (Trialetti, Mesxeti, Karashamb). Dafn odatlari. Kulolchilik. Metall buyumlar. Ijtimoiy tabaqalanish masalalari. Kamirbed madaniyati. Sevano-uzerlik madaniyati. Uzerlik manzilgohi. Qabrlar. Xo'jalik va moddiy madaniyati. Kavkazorti so'nggi bronza davrida. Xo'jalik va ijtimoiy tuzulmalardagi o'zgarishlar. Metallurgiya taraqqiyoti. Qabr yodgorliklari. Digom teksliklari ilk shahar madaniyati.

SHimoliy Kavkaz eneolit va ilk bronza davrida. Eneolit davri manzilgohlari. Dog'istonda Ganchi manzilgohi. Nalchik qabristoni. Ilk bronza davri Maykop madaniyati. Maykop qabr-qo'rg'oni. Dolmenlar. Qabr inshootlari. Dafn inshootlari. Kulolchilik, metallarga ishlov berish. Manzilgohlar (Galyugay I, Dolinsk, Serechinsk). Uy-joy qurilishi. Xo'jalik. Ijtimoiy tabaqalanish. SHimoliy Kavkaz rivojlangan bronza davrida. Qabr inshootlari. Xo'jalik va moddiy madaniyat. SHimoliy Kavkaz so'nggi bronza davrida Koban madaniyati. Xo'jalik. Metallurgiya. Dag'istonda Kayakent-Xorochoev va SHimoli-g'arbiy Kavkazning Kuban bo'yи madaniyatlari.

## **Evropada ilk dehqonchilik madaniyatining shakllanishi**

Evropada ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning shakllanishida Old Osiyoning o‘rni. Krit, Fessaliya va Attikaning eng qadimgi dehqonlari. Neolit davri manzilgohlari. Manzilgohlari. Uy-joy imoratlari qurilishi. Mehnat qurollari, qurol yarog‘lar. Bolqan-Karpat ishlab chiqarish markazi. Asosiy arxeologiya yodgorliklari. Kulolchilik. Mehnat qurollari. Dehqonchilikning Markaziy Evropaga yoyilishi. CHiziqli-tasmali sopolis madaniyatining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. SHimoliy Evropada dehqonchilikning shakllanishi.

### **Eneolit-bronza davri Krit-miken madaniyati**

Kritda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning shakllanishi. Krit bronza davrida. A. Evansning Knossda amalga oshirga qazishmalari. Ilk minoy davri. Vasilikadagi manzilgoh. Palekastro. Me’morchilik. Jamoa qabrlari. Hunarmandchilik. Kulolchilik. Metallarga ishlov berish. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari. O‘rta Minoy davri. “SHahar inqilobi” masalasi. Ilk shahalar. Qurilish. Knoss, Festa va Malliya saroylari. Ibodatxonalar. Dehqonchilik, metallurgiya. Kulolchilik ishlab chiqarishi. Muhrilar. Ijtimoiy tuzilmalar. YOzuv. So‘nggi minoy davrida jamiyat taraqqiyotining cho‘qqisi. Gurniya, Palekastro, Psira shaharlari. Knoss va Festadagi yirik saroylar. Haykallar va haykalchalar. Fayansdan ishlangan buyumlar. Oltindan ishlangan buyumlar. CHiziqli yozuv. Qulchilik masalalari. Miken ta’sirining boshlanishi. YUnioniston bronza davrida. Ellada davri va uning bosqichlari. Qurilish va me’morchilik. Megaron uylar, qal’alar, saroylar. Kulolchilik, metallarga ishlov berish. Miken davri madaniyat taraqqiyoti. Qabrlar. Kuzatuv buyumlari. Miken shaharlari. Mudofaa tizimi. Saroylar. Uy-joy imoratlari. Hunarmandchilik. Zargarlik. YOzuv. Mikenda quldorlik masalalari.

### **Evropaning eneolit-bronza davri arxeologiyasi**

Karpat havzasi eneolit davrida. Lendel madaniyati. Manzilgohlari (Nitryanskiy, Grodok, Brang). Uy-joylar. Kulolchilik. Tosh va metallardan yasalgan buyumlar. Dafn odatlari (ko‘mish va kuydirish). Tisopolgar madaniyati. Manzilgohlari va qabristonlar (Tisopolgar, Bashatanya, Vilke, Rashkovse). Dafn marosimlari. Kuzatuv buyumlari. Kulolchilik. Metall buyumlari. Xo‘jalik. Baden madaniyati tarqalish xududi. Muxofaza qilingan manzilgohlari. (Evizovitse, Brno Lishni). Qabrlar. Dexqonchilik. CHorvachilik. Yilqichilik. Arava nusxalari. Baden madaniyatining janubiy xududlar bilan aloqalari. Bolqon yarim orolining eneolit davri Gumelnitsa madaniyati. Manzilgohlari (Karanovo, Ovgarovo). Mudofaa inshootlar. Uy-joylar. Varnen mozori. Oltin va bronza buyumlar. Metallurgiya. Oybunar koni. Gumelnitsa jamoasi ijtimoiy taraqqiyotining yuqori darajasi. Kukutine-Tripole madaniyati tarqalgan hududlar. Manzilgohlari. Uy-joy imoratlari. Xo‘jaligi. Kulolchilik. Metall buyumlar. Dafn marosimlari

### **SHarqiy Evropaning eneolit-bronza davrida arxeologiyasi**

Golotsen davri tabiiy-iqlim sharoitining qaror topishi. Evrosiyo dasht hududlari turli tabiiy-geografik sharoitiga mos o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllarining vujudga kelishi. CHorvachilik ishlab chiqarish tarmog‘ining shakllanish shart-sharoitlari. Evrosiyoning shimoliy dasht hududlarida ixtisoslashgan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shaklidagi qabilalar asosida chorvachilikning shakllanishi. Paleometall davri ishlab chiqaruvchi xo‘jalikga asoslangan Drevneyamnaya (*qadimgi chuqur*) madaniy-tarixiy birligi. Drevneyamnaya madaniyati tarqalgan hududlar. Aravaning paydo bo‘lishi va chorvador qabilalar migratsiyasi. Qozog‘istonning eneolit davri Botay madaniyati. Janubiy Uralning eneolit davri Mulino II, Davlekanovo II, Surtandi, Uzunkul, Sabakti va boshqa manzilgohlari. Uy-joylar. Qabr-ko‘rg‘onlari. CHorvachilik xo‘jaligi va tarmoqlari. Mis buyumlar. Tosh qurollari. Kulolchilik. Moddiy madaniyat. Katakomba madaniy-tarixiy birligi. Qabr inshootlari va dafn odatlari. Manzilgohlari va qurilish. Mis buyumlar. Tosh va suyaklardan ishlangani qurollari, kulolchilik. Xo‘jalik. Katakomba madaniyatining paydo bo‘lishi muammolari. Srub (YOg‘ochband) madaniy-tarixiy birligi. Srub

madaniyati tarqalgan hududlar. Manzilgohlar va qabrlar. CHorvachilik Srub madaniyati xo‘jaligining asosiy tarmog‘i sifatida. Dehqonchilikning yordamchi xo‘jalik sifatidagi ahamiyati. Srub madaniyatining O‘rtal Osiyoning shimoliy xududlariga ta’sir doirasi. Srub madaniyatida metallurgiya, mis buyumlari. Sapol buyumlari va tosh qurollari.

### **Ural-Oltoyning bronza davri arxeologiyasi**

Janubiy Sibirda eneolit davri Afanasev madaniyatiga oid manzilgohlar va qabr-qo‘rg‘onlari: Afanasev madaniyatining irqiy mansubligi. Janubiy Sibirda eneolit davri Okunev madaniyati. Okunev madaniyati genezisi. Afanasev va Okunev madaniyatlariga oid arxeologiya yodgorliklari: Tes, Sida, Karasuk III, CHernovaya, Ust Koksa, Ust Kuyum, Okunev Ulus, Tas Xaza va boshqalar. Uy-joylar. Xo‘jalik xususiyatlari va ularning Evrosiyo dashti tabiiy-geografik sharoitiga bog‘liqligi. Metallurjiya. Kulolchilik. Moddiy madaniyat. Diniy qarashlar.

Andronovo madaniyati. Andronovo madaniyati tarqalgan hududlar va uning tadrijiy bosqichlari. Manzilgohlar va qabrlar. Sintashta va Arkaim. Manzilgohlarning mudofa tizima. Zodagonlar qabr qo‘rg‘onlari. Sopol buyumlari. Metallarga ishlov berish darajasi. Mehnat qurollari. CHorvachilik va motiga dehqonchilik. Andronovo madaniyatining shakllanish masalalari. Andronovo madaniyatining janubiy o‘troq dehqonchilik hududlariga ta’siri. Janubiy Sibirning so‘nggi bronza davri arxeologiyasi. Janubiy Sibirda Karasuk madaniyatining tarqalishi. Xakassiya-Minusiy botig‘i hududidagi Karasuk madaniyatiga oid qabrlar va ko‘mish marosimlari. SHarsimon sapol buyumlari va bronzadan ishlangan buyumlar. Xo‘jaligi.

### **Hindistonning qadimgi davri arxeologiyasi**

SHimoliy Belujistonda ilk dehqonchilik asoslangan Mergar madaniyatining shakllanishi. Mergar, Kili-Gxul Muhammad manzilgohlari va ularning bosqichlari. Gang hududlarida ilk dehqonchilikning shakllanishi masalalari. Janubi-sharqiy Osiyo turli tabiiy sharoitlardan tashkil topgan hududlarning neolit davri xususiyatlari. Xo‘jalik va moddiy madaniyati. SHimoliy Belujistonda ilk dehqonchilik asoslangan Mergar madaniyatining shakllanishi. Mergar, Kili-Gxul Muhammad manzilgohlari va ularning bosqichlari. Gang hududlarida ilk dehqonchilikning shakllanishi masalalari. Janubi-sharqiy Osiyo turli tabiiy sharoitlardan tashkil topgan hududlarning neolit davri xususiyatlari. Xo‘jalik va moddiy madaniyati. Hindistonning o‘troq dehqonchilik madaniyatining kengayishi. Hind vodiysida Kvetta, Amri va Zxob madaniyatları. Dehqonchilik qishloqlari va uy-joy qurilishi. Kulolchilik charxining kashf etilishi. Hunarmandchilik. Tasviriy san’at va haykalchalar. Kotdiji, Kalibangan protoshahar markazlari. Xarappa madaniyatining shakllanishi. Moxenjodaro, Xarappa, Ganverivale, Kalibangan va boshqa protoshahar markazlari. Ibodatxonalar va saroy shaklidagi imoratlar. Aholi uy-joy imoratlar. Hunarmandchilik, savdo aloqalari va ayrboshlash. Moddiy madaniyat va tasviriy san’at. Xarappa madaniyati inqirozi. SHo‘rto‘qay.

### **SHarqiy Osiyoning qadimgi davri arxeologiyasi**

SHarqiy Osiyoning neolit davri xo‘jaligi va moddiy madaniyati. Xuanxe va YAnszi vodiylari neolit davrida. Mil.avv. IV ming yillikda Xuanxening o‘rtal oqimi hududida ilk dehqonchilikning qaror topishi. YAnshao madaniyati. Banpo manzilgohi. Ixtisoslashgan hunarmandchilik. So‘nggi neolit davri Lushan arxeologiya majmuasi. Xitoyda sivilizatsiyaning shakllanish shart-sharoitlari. Erlitou ilk SHan davri ilk shaharlari. Erligan bosqichi. SHan-in davri. CHjenchjou manzilgohi. Mudofaa tizimi. Tagkursi ustida bunyod etilgan saroy va ibodatxonalar. Aholi o‘rtasida tabaqalanishining kuchayishi. Metallurgianing shakllanishi. Moddiy madaniyat va tasviriy san’at. Savdo va hunarmadchilik turlarining rivojlanishi. Anyan yodgorligi. Mahobatli qabrlar. Sirtida bo‘rtma naqshli yirik mis eidishlarning paydo bo‘lishi.

O‘rta SHan- ilk CHjou davri jamiyatidagi chuqur o‘zgarishlar. Ixtisoslashgan hunarmandchalikning takomillashishi. Zargarlik san’ati. YOzuv.

### **Koreya va YAponianing qadimgi davr arxeologiyasi**

Koreyaning neolit davri xususiyatlari. Bronza davri VIII-VII asrlarda temirdan foydalanishning boshlanishi. Dastlabki davlat birlashmasi. CHoson. YAponiya neolit davrida. Dzyomon madaniyati va uning bosqichlari. Dastlabki kulolchilik buyumlarining paydo bo‘lishi. YAyoy madaniyati va uning bosqichlari. YAponiyada mil.av. II asrda qabilalar ittifoqi birlashishi jarayoning kechishi.

### **Janubi-sharqiy Osiyoning qadimgi davr arxeologiyasi**

Janubi-sharqiy Osiyo ilk sivilizatsiyaning shakllanish shart-sharoitlari. Hindixitoy yarim orolidagi bronza davr Fungnguen va Dongdau madaniyatlari. Janubi-sharqiy Osiyoda Dongshon sivilizatsiyasining shakllanishi va tarqalgan hududlari. Xo‘jalik xususiyatlari. Moddiy madaniyat. Bronzadan ishlangan mehnat qurollari. Metallarga solingan tasvirlar. Uy-joylari. Ijtimoiy tuzilmalar va ma’naviy madaniyat.

### **Qadimgi Peru va Mezoamerika arxeologiyasi**

Ekvadorda dehqonchilik va baliqchilik xo‘jaligiga asoslangan qabilalarning paydo bo‘lishi. Peruda Uaka-Prieta madaniyati. And tog‘lari hududlarida (mil. av. VII-III ming yilliklar) o‘simgiklarni madaniylashtirishning boshlanishi va ilk dehqonchilik. Pikimachay g‘ori va unin bosqichlari: Xayva, Piki va CHiua. CHavin komplekslari. Mochikada sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi. Mezoamerikaning ilk dehqonchilik jamoalari. Markaziy Amerikada o‘troq dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi. Ekvadorda Pedro Xormige majmuasi va Valdiviya madaniyatlari. Dehqonchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalar. Peru qirg‘oqlarida Uaka-Pieta madaniyati va uning xo‘jalik xususiyati. Aspero manzilgohi. Mahobatli imoratlardan tashkil topgan manzilgoh majmualari: Serro-Sechin, Gorgay, Pako-pampa. Sopol idishlar.

Markaziy Amerika (Peru)da Kupisnik madaniyati (mil. av. I ming yillik boshilar) va Olmeklar, Parakas va Naska madaniyatlari (mil. av. I ming yillikning o‘rtalari). Tres, Sapotes, Le-Venta, Serro-de-las-Mesas shahar xarobalari. Saroy va ibodatxonalar. Tosh stella va haykallar.

### **Temir davrining umumiyyatini tavsifi**

“Temir davri” va “ilk temir davri” tushunchalari. Temirni o‘zlashtirish jarayoni va uning madaniy tarixiy ahamiyati.

“Temir davri” va “ilk temir davri” terminlarining tavsiflanishi: filosofik etnik nuqtai nazar (Gesiod, Publiy Ovidiy Nazon va boshqalar) va sof texnologik nuqtai nazar (Tit Lukretsiy Kar, K.YU. Tomsen, Y. YA. Verso va boshqalar)

Temirni o‘zlashtirishning obektiv qonuniyatlari va bu jarayonning madaniy tarixiy mohiyati. Bronza va temir davri oralig‘idagi chegara muammolar: K.YU. Tomsena, Y.YA. Vorsa, G. Mortile, G. Obermayera va J. Desheletta fikrlari. O. Monteliusa nuqtai nazar. Temirni o‘zlashtirishdagi ayrim muammolar. Meteorit temirning kashf qilinishi va foydalanilishi. Meteorit temiridan ishlangan qadimgi narsalar(Samarra, Gers, Meduma, Meskalam-duga, Aladja-Guyuk, Boldirevo, Bichkin-Buluk, Tutanxamon sag‘analari va boshqalar).

Dastlabki temir ruda konlarining o‘zlashtirilishi. Temir ishlab chiqarish texnologiyalari va pechlari. Mehnat va ov qurollarini ishlab chiqarishda qora metalurgiyaning o‘rni. Tabiiy temir rudalaridan ishlangan qadimgi narsalar (Tell-Ashmar, Aladja-Guyuk, Gerasimovka, Tashlyk, SHirokaya mogila).

Temirning o‘zlashtirilishi haqidagi dastlabki yozma manbalar. Temir davrining kirib kelishi: xronologiyasi va tarqalish geografiyasi, arxeologik va yozma manbalar. Xettlar tomonidan temirning o‘zlashtirilishi. Ossuriya shohlari Sargon II va Xorsabade saroylaridan topilgan temir ashyolari. Ilk temir davrida Hindiston: ashyoviy va yozma manbalar (Rigvela,

YAjurveda, Geradot, Ktesiy, Kvint Kursiy Ruf). Kichik Osiyo yunon shaharlarining temir davriga o'tishi: ashyoviy va yozma manbalar (Gomer, Gesiod, Aristotel va boshqalar). Janubiy, G'arbiy, SHimoliy, SHarqiyya va Markaziy Evropa Osiyo cho'llari va O'rta Osiyo hududlarining temir davriga o'tishi. Janubiy YAqin SHarq hududlarining temir davriga o'tish muammolari. Ilk temir davrida Xitoy: ashyoviy va yozma manbalar (SHitszin, "Szo CHjuan" va boshqalar). Ilk temir davrining SHimoliy, SHarqiyya va Markaziy Afrikaga kirib kelishi. (Qadimgi Misr, Meroe podsholigi).

### **G'arbiy va Markaziy Evropa arxaik davri arxeologiyasi.**

Galshtat madaniyati. Galshtat madaniyatining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari. Qabr, qo'rg'onlar. Galshtat madaniyati xronologiyasi. (O. Monteliusa, P. Rayneke, X. Myullera-Karpe, R. Pittioni, G. Parsingera, K. Metsner-Nebelsik ishlari). Galshtat madaniyati hududi va etnik tarkibi: madaniyat o'chog'i va tarqalish hududlari. Illiriya va keltlar. Galshtat madaniyati taqdidi.

Galshtat madaniyati yodgorliklarining asosiy tiplari. Arxitekturasi. Manzilgohlar(Geyneburg, Donya dolina, Neyxeyzel, Kamp-de-SHato va boshqalar). Fortifikatsiya va plani. Uy-joylar, qo'rg'onlari. Galshtat madaniyati keramikasi. Xo'jaligi: dehqonchilik, chorvachilik, qora va rangli metalurgiya, to'qimachilik va boshqalar. Mehnat qurollari. Kiyim, bezaklar.

Laten madaniyati. Galshtat madaniyati evolyusiyachi va laten madaniyatining tashkil topishi. Keltlar yurishi. Kichik Osiyoda kelt-galatva laten madaniyatlarining tarqalishi. Laten madaniyati xronologiyasi(O.Tishlera, P. Rayneke, J. Desheletta, YA. Filipa, X. Eggersa, Y. Kostshevskogo, K. Godlovskogo, M.B. Щукина ishlari). Laten madaniyati hududi va etnik tarkibi: madaniyat o'chog'i va tarqalish hududlari.

Asosiy yodgorliklari(Aleziya, Bibrakte, Manxing, Tarado, Gradiuste, Zavist). Qadimgi rim arxitekturasining ta'siri. Mudofaa ishoatlari(Gall devori). Botqoqlik manzilgohlari va orol uy-joylari(La Ten, Glastonberi): qurulish konstruksiyasi va materiallari. Qabr, qo'rg'onlar(Somm-Bion, Gorj-Meye, Vaaldalgesxaym, Dyurnberg va boshqalar). Iqtisodi. Dehqonchilik xo'jalikning asosi. CHorvachilik, savdo-sotiq, qora va rangli metalurgiya, daraxtni qayta ishlash, to'qimachilik va boshqalar. Tanga ishlab chiqarish va uning evolyusiyasi. Ijtimoiy aloqa. Diniy qarashlari.

Galshtat va laten madaniyatlarining madaniyat o'choqlariga ta'sir qilgan asosiy belgilari. YAstorf, Lujits, Pomors, Pshevors va oksiv madaniyatları.

### **Janubiy Evropaning arxaik davri arxeologiyasi**

Ilk temir davrida Italiya. Villanova madaniyati. Villanova madaniyatining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari. Villanova madaniyati xronologiyasi. Villanova madaniyati hududi va etnik tarkibi: madaniyat o'chog'i va tarqalish hududlari. Turdosh madaniyatları.

Villanova madaniyati yodgorliklarining asosiy tiplari. O'ziga xos xususiyatlari. Arxitekturasi. Manzilgohlar. Fortifikatsiya va plani. Uy-joylar, qo'rg'onlari. Villanova madaniyati keramikasi. Xo'jaligi: dehqonchilik, chorvachilik, qora va rangli metalurgiya, to'qimachilik va boshqalar.

Gollaseka madaniyati. Gollaseka madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. Xronologiyasi. Golloseka madaniyati hududi va etnik tarkibi: madaniyat o'chog'i va tarqalish hududlari. Asosiy yodgorliklari. Qurulish konstruksiyasi va materiallari. Qabr, qo'rg'onlar. Diniy qarashlari.

Este madaniyati. Este madaniyati paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. Xronologiyasi. Este madaniyati tarqalish hududi. Ho'jaligi. Hunarmandchiligi. Este madaniyati keramikasi. Arxeologik yodgorliklari: qabr qo'rg'onlar, uy-joy qoldiqlari. Rim madaniyatining kirib kelishi. Turdosh madaniyatlar.

Pitsan (novilyar) madaniyati. Xronologiyasi. Tarqalish hududi. Xo'jaligi. Hunarmandchiligi. Pitsan madaniyati keramikasining o'ziga xos hususiyatlari. Arxeologik

yodgorliklari: qabr qo'rg'onlar, uy-joy qoldiqlari. Apuli madaniyati va orollar. Sitsiliya orolining temir davri yodgorliklari.

Etrusklar. Hududiy chegarasi. Etrusklar migratsiya jarayonlari. Italiya hududidagi ilk hududiy davlatning tashkil topishi. Etruskarning kelib chiqishi muammolari(Geradot, Dionisiy Galikarnass, Tit Liviy manbalari). Etrusklar ho'jaligi, hunarmandchiligi, kulolchiligi va boshqalar. Arxeologik yodgorliklari

### **SHarqiy Evropaning arxaik davri arxeologiyasi**

SHarqiy Evropa arxaik dari madaniyatlari tavsifi. Etnomadaniyat jarayonlari. Asosiy ho'jaligi. Ko'chmanchilar madaniyatining ta'siri.

Ilk temir davri Dyakov madaniyati. Xronologiyasi, tarqalish hududi, tili. Dyakov madaniyatining yirik shaharlari(Katta Kashir, Troitsko, Dyakovo, Nastas'ino va boshqalar). SHaharlar evolyusiyasi va moddiy madaniyat dinamikasi. Mudofaa inshoatlari, uy-joy qoldiqlari. Ho'jaligi. Dehqonchilik va chorvachilik. Keramikasi. Qora metallurgiya va temirchilik komplekslari. Mehnat qurollari. Dyakov madaniyati qabr inshoatlari.

Gorodets madaniyati. Xronologiyasi, manba, tarqalish hududi. Etnik hususiyatlari. SHahar madaniyatiga xos uy-joylar va ularning evolyusiyasi. Gorodets madaniyati ho'jaligi.

YUXnov madaniyati. Xronologiyasi. Tarqalish hududi. O'ziga xos hususiyatlari.

Ananin madaniyati. Xronologiyasi, tarqalish hududi. Manba va madaniyat taqdiri. Etnik tarkibi. Mudofaa inshoatlari, uy-joylari. Ananin madaniyati qabrlari(Katta Axmilov, Ananin va boshqalar). Ko'mish marosimi. Ananin madaniyati hujaligi: o'troq chorvachilik va dehqonchilik. Bاليqchilik va ov. Qora va rangli metallurgiya. Keramika. Xarbiy qurollari. Oqliq aslahanjomlari. Turdosh madaniyatlar.

### **Kavkazning arxaik davri arxeologiyasi**

Kaban madaniyati. Xronologiya: bronza davri va temir davri. Madaniyatning etnik muammo alomatlari. Madaniyatning avtoxton elementlari. Xo'jalik turlari. Kaban madaniyatida metallurgiyani o'rni. Mahalliy turlari. Manzilgohlar: plani, joylashuvi va h.k. Qabr: tosh qutilar, qabr, qo'rg'onlar. Ko'mish marosimlari. Ho'jaligi. Hunarmandchiligi, Diniy qarashlar.

Meot madaniyati. Manbalar, Xronologiyasi va asosiy etaplari. Qabrlardan topilgan ashyolar. Protomeot davri yodgorliklari (Nikolaevskiy, Kubanskiy, Fars va boshqalar). Qo'rg'onlar (Uashxitu-1 i Uashxitu-2).

Meot madaniyati, skifo-meot va meoto-sarmat madaniyatlari simbiozi. Kelermess, Uls va Ulyap qo'rg'onlari. Ettiaka(Semibrat) shahri va qo'rg'onlari, Elizavet shahri va qo'rg'onlari, Karagodeuashx, Katta Egizaklar, Ust-Labin va Pashkov qabr-qo'rg'onlari. Moddiy madaniyatining asosiy hususiyatlari. Meot madaniyati asoschilarining taqdiri.

Kavkazorti hududlarining ilk temir davri tavsifi. Kavkazorti hududlarida temirni o'zlashtirish jarayonlari. Kaban, urart va eronning ta'siri. Kolxid madaniyati. Kolxid madaniyatining asosiy hususiyatlari. Manzilgohlar(Dablagomi va boshqalar). Qabr-qo'rg'onlar(Dablagomi, Kldeeti va boshqalar). Madaniyatning asosiy hususiyatlari. Kartliy podsholigi, Armazi shaharchasi. Samtavro qabri.

### **Janubiy Osiyo arxaik davri arxeologiyasi**

Hindiston. Temir davriga o'tilishi. Temir davri moddiy madaniyati evolyusiyachi. Ilk hududiy davlatning paydo bo'lishi. Hind vodiysida temirning ho'jalik ishlarida keng ishlatalishi. Arxaik davri yozma manbalari(Rigveda). Ilk temir davri madaniyatlar. Madaniyatlar sintezi. Arxeologik yodgorliklari. Ho'jaligi. Hunarmandchiligi, Diniy qarashlar va h.k.

### **Antik davrining umumiy tavsifi**

Antik davrda bo'lган o'zgarishlar. Yevropa va Osiyodagi quidorlik davlatlarining paydo bo'lishi. Yunon koloniyalashtirilishi. Sharq sivilizatsiyasi, shahar madaniyati, Baqtriya, Qadimgi

